



Fanning o‘quv dasturi Qarshi muhandislik-iqtisodiyot institutida ishlab chiqildi.

**Tuzuvchi:** **G‘.N.Aliqulov** – “Geodeziya, kadastr va yerdan foydalanish” kafedراسi mudiri, q.h.f.n., dots.

**Taqrizchilar:** **K.Xujakeldiyev**– “Geodeziya, kadastr va yerdan foydalanish” kafedراسi katta o‘qituvchisi

**SH.Niyazov** - “O‘zdaverloyiha” DILI Qashvilerloyiha bo‘linmasi bosh muhandisi

Fanning o‘quv dasturi Qarshi muhandislik-iqtisodiyot instituti Kengashida ko‘rib chiqilgan va tavsiya qilingan (2022 yil \_\_\_\_\_ dagi «\_\_\_» - sonli bayonnoma).

## **Kirish**

Ushbu dasturda jumladan mamlakatning yanada rivojlanishi aholi turmush darajasi madaniyatini o'sishiga olib keladi. Natijada uy– joy, madaniy – maishiy, kommunal va ishlab chiqarish binolarini qurish hajmi oshadi. Yangi aholi punktlari qurish va mavjudlarini qayta qurish o'z navbatida qishloq xo'jalik korxonalarida mahsulotlarini qayta ishlaydigan katta kichik sanoat korxonalarini asosli ravishda joylashtirish va loyihalarini tuzish to'g'risida zaruriy ma'lumotlar to'plash, ularni yagona tizimga keltirish davlatimiz uchun muhim siyosiy, iqtisodiy va ijtimoiy ahamiyatga egadir. Shu bilan birga fanni o'rganish mamlakatimizdagi mavjud resurslar salohiyatini muntazam ravishda tadqiq qilish imkoniyatini yaratadi.

### **Fanning asosiy maqsadi va vazifalari**

Fanni o'qitishdan maqsad – talabalarda «Shahar va qishloq aholi yashash joylarini loyihalash va qurish asoslari» fanini o'rganishdan maqsadi, aholi yashash joylaridagi tabiiy, iqtisodiy sharoitni o'rganib, ulardagi qurilish va inshootlarni joylashtirish qoidalari, me'yorlari va usullaridan foydalanib aholi punktining Bosh loyihasini tuzishni yanada samarali, maqsadli va oqilona foydalanish hamda uni har tomonlama o'rganish masalalardan hisoblanadi.

Fanning vazifasi - loyiha tuziladigan maydonni tanlash va tashkil qilish, qishloq infrastrukturasi rivojlantirish, mehnatni to'g'ri tashkil qilish, aholi turmush madaniyatini oshirish uchun sharoit yaratish kabi masalalar, qishloq xo'jalik ishlab chiqarishini va unga mos ravishda hududni tashkil qilish usullarini asoslash, yerlarining optimal o'lchamlari va tarkibini belgilash, ular rivojlanishining ustivor yo'nalishlarini tanlash, samaradorligini oshirish yo'llarini aniqlash.

### **Fan bo'yicha talabalarning bilimiga, ko'nikma va malakasiga qo'yiladigan talablar**

-«Shahar va qishloq aholi yashash joylarini loyihalash va qurish asoslari» fanini o'zlashtirish jarayonida amalga oshiriladigan masalalar doirasida bakalavr:

-mamlakat iqtisodiyotida Shahar va qishloq aholi yashash joylarini loyihalash va qurishning o'rni va ahamiyatini, xo'jaliklarda mavzu bo'yicha ish yuritish samaradorligini kompleks baholashni, uning ijtimoiy-iqtisodiy xarakterini, yerlarning optimal o'lchamlarini va iqtisodiy samaradorligini baholashni ***bilishi kerak***;

- umumxo'jalik ahamiyatiga ega obyektlarga shahar va qishloq aholi yashash joylarini loyihalash va qurishni iqtisodiy asoslash, uning loyihalarining iqtisodiy - samaradorligini kompleks baholash, qishloq xo'jalik korxonalarini yer egaliklari va yerdan foydalanuvchilar yerlarining optimal o'lchamlarini aniqlash kabi ***ko'nikmalariga ega bo'lishi kerak***.

### **Fanning o'quv rejadagi boshqa fanlar bilan o'zaro bog'liqligi va uslubiy jihatdan uzviy ketma-ketligi**

Shahar va qishloq aholi yashash joylarini loyihalash va qurish asoslari fani tanlov fani hisoblanib 7- semestrda o'qitiladi. Dasturni amalga oshirish o'quv rejasida rejalashtirilgan umumiy (Topografik-kartografik chizmachilik, Kartoshunoslik, Yer kadastri) fanlaridan yetarli bilim va ko'nikmalarga ega bo'lishlik talab etiladi.

### **Fanning ishlab chiqarishdagi o'rni**

Respublikamizda qishloq xo'jaligida iqtisodiy islohotlarni chuqurlashtirish va agrar sohani rivojlantirishning yo'nalishlaridan biri yer resurslaridan oqilona va samarali

foydalanishni tashkil etishni mukammallashtirish hisoblanadi.

Shuning uchun Shahar va qishloq aholi yashash joylarini loyihalash va qurish asoslari fani belgilangan tadbirlarining iqtisodiy samaradorligini aniqlash, uning iqtisodiy asoslashda muhim ahamiyat kasb etadi. Ushbu fan mutaxassislik fani hisoblanib ishlab chiqarishda geodeziya, kartografiya va kadastr sohasining ajralmas bo'g'inidir.

### **Fanni o'qitishda zamonaviy axborot va pedagogik texnologiyalar**

Talabalarning Shahar va qishloq aholi yashash joylarini loyihalash va qurish asoslari fanini o'zlashtirishlari uchun o'qitishning ilg'or va zamonaviy usullaridan foydalanish, yangi informatsion – pedagogik texno-logiyalarni tadbiriq qilish muhim ahamiyatga egadir. Fanni o'zlashtirishda darslik, o'quv va uslubiy qo'llanmalar, ma'ruza matnlari, tarqatma materi-allari, elektron materiallar, virtual stendlar hamda ishlab chiqarishda mavjud holatlarning rasmlaridan foydalaniladi. Ma'ruza, amaliy dasturlarida mos ravishda ilg'or pedagogik texnologiyalaridan foydalaniladi.

## **Asosiy qism**

### **Fanning tarkibi va mazmuni**

Fanning maqsadi va vazifalari. Qishloq xo'jaligidagi islohatlar, yer kodeksi, yer kadastr qonuni, shaharsozlik kodeksi. Qishloqdagi aholi punktlarining qishloq xo'jaligi yerlariga va boshqa korxonalar, tashkilotlar bilan bog'liqligi. Aholi punktlarining loyihalarini tuzish va qurish prinsiplari, qoida va usullari.

Hamma yangi korxonalarining joylashtirish va mavjud qishloqlarni qayta qurish, ya'ni qoida va me'yorlariga asoslanib ularning loyihalarini tuzish ishlarini olib boruvchi geodeziya, kartografiya va kadastr bakalavr mutaxassislarini tayyorlashda nazariy va amaliy bilim beradigan asosiy fanlardan biri hisoblanadi.

### **Aholi yashaydigan joylarning loyahasini tuzish**

Aholi yashaydigan joylarning loyahasini tuzish uchun kerakli bo'lgan materiallar. Loyihani tuzishdagi asosiy materiallar va qurilish bo'ladigan uchastkalar o'rnini tanlash. Loyiha tuziladigan joyda binolar, inshootlar qurish mumkinligi to'grisida ma'lumotlar. Joyning tabiiy sharoiti, geologik, gidrogeologik holati. Mutaxassislar ishtirokida aholi punkti uchun o'rin tanlash va uni rasmiylashtirish.

### **Aholi sonini hisoblash**

Xo'jalikda va undagi aholi punktlarida yashaydigan aholi sonini uzoq muddatga aniqlash usullari. Aholi sonini aniqlash usullari: aholi sonini ish hajmiga nisbatan aniqlash; aholi sonini statistik ma'lumotlar asosida aniqlash:

Oilalar sonini hisoblash. Oilalar soni uning demografik tarkibi qismini statistik ma'lumotlar asosida aniqlash. Oilalar tarkibining qurilish hajmini, uy joy turlarini sonini aniqlashdagi ahamiyati.

### **Aholining uy-joyga, madaniy-maishiy va xo'jalikning ishlab chiqarish qurilishlariga bo'lgan talabi**

Aholining uy-joyga, madaniy-maishiy va xo'jalikning ishlab chiqarish qurilishlariga bo'lgan talabini aniqlash. Jamoa korxonalarining turi, soni, sig'imi va uni joylashadigan maydonlarini aniqlash. Ishlab chiqarish qurilishlarining turi, soni, sig'imi. Loyihada joylashtiriladigan binolar, inshootlar ro'yxati.

Aholi yashaydigan joyning maydonini aniqlash. Loyiha tuziladigan aholi punktining egallaydigan maydonini aniqlashdagi me'yorlar, formulalar, tomorqa me'yorlari.

### **Shahar va qishloq aholi yashaydigan joylar**

Shahar va qishloq aholi yashash joyning qismlari va elementlarini joylashtirish shartlari. Funktsional hududlarni joylashtirish. Aholi punktidagi funktsional hududlar. Aholi yashaydigan ishlab chiqarish, tashqi va himoya hududlari. Funktsional hududlarni joylashtirishdagi va loyihasini tuzishdagi asosiy omillar, meyorlar.

Aholi yashaydigan joyning asosiy qismlari va elementlarini joylashtirish shartlari.

### **Aholi punktidagi asosiy funktsional qismlar**

Aholi punktidagi asosiy funktsional qismlar va elementlarini joylashtirishdagi iqtisodiy, sanitariya-gigiyena, qurilish ishlarining bajarilishi, me'moriy, talablar.

Jamoa maydonlar va ko'chalar tarmog'ini joylashtirish. Ko'chalar tarmog'i loyihasining asosiy va tarkibiy qismi, aloqa vositasi. Ularni joylashtirishda relyefni hisobga olish.

Aholi yashaydigan joy loyihasining kompozitsiyasi. Loyihaning me'moriy kompozitsiyasi va qurollari.

### **Tabiiy sharoitning loyiha kompozitsiyasidagi ahamiyati**

Joyning tabiiy sharoitining (relyef, ko'l, daryo, kukalamzor v.b.) loyiha tarkibini tashkil qilishdagi ahamiyati. Loyihaning me'moriy kompozitsiyasini yaratish, tuzish usullari.

Aholi yashaydigan joylardagi ko'chalar va maydonlar. Ko'chalar tizimi. Ko'chalar loyihaning texnik va kompozitsiya asosi, ko'chalar ichki qatnov tizimi:

### **Ko'chalarni loyihalash**

Ko'chalar toifalari. Katta yo'ldan aholi punktiga kirish yo'li, aholi punkti markaziga olib boruvchi asosiy ko'cha, aholi yashaydigan hudud ichidagi ko'chalar, aholi yashaydigan hududni ishlab chiqarish hududi bilan bog'lovchi ko'chalar va xo'jalikdagi ishlab chiqarish hovlilariga xizmat qiluvchi ko'chalar.

Ko'chalarni shamol yo'nalishiga, ekvatoriga nisbatan, relyefini hisobga olgan holda joylashtirish, ko'chalarning kesishishi.

### **Maydonlar va ularga jamoa binolarini joylashtirish**

Jamoa maydonlarining turlari, shakllari, o'lchamlari (egallaydigan yer maydonlari). Ularning ko'chalar bilan bog'liqligi. Jamoa maydoniga binolarni joylashtirish va arxitektura ansambli.

Loyihaning tarkibi birligini tashkil qilishda aholining amaliy talablarining qondirilishi, yashash sharoiti, madaniy-maishiy xizmat ko'rsatilishi va h.k. asos qilib olinishi.

### **Aholi yashash joylaridagi yashash uylari va ularni joylashtirish shartlari**

Aholi uy-joylarining turlari, ularning ijtimoiy, iqtisodiy ko'rsatkichlari, uylarni quyosh nuri tushib turishini va relyefini hisobga olgan holda joylashtirish. Binolarning nishabligi katta joylarda joylashtirish shartlari va usullari.

Tomorqa yer uchastkasining loyihasi. Tomorqali, tomorqasiz va seksiyali uylar to'g'risida tushuncha. Kvartallar, ularning turi, shakli va binolarni joylashtirish.

Kvartallar, loyihasining asosiy elementlari. Kvartallar turi, shakli, o'lchamlari. Jamoa korxonalari uchastkalarining loyihalari. Jamoa korxonalarining turi, ular uchun ajratiladigan, joylashadigan yer maydonlari meyorlari. Bolalar bog'chasi – yaslilari, maktablar, savdo markazi, umumiy ovqatlanish, istirohat bog'lari va hiyobonlar, ma'muriy tibbiyot korxonalarining loyihalarni tuzish.

#### Aholi punktini obodonlashtirish

Aholi pukti maydonini injenerlik jihozlash – maydonni tekislash, sug'orish, ichimlik, chiqindi va issiq suvlar tarmog'i v.h. Hisob-kitobi va sxemalari.

Loyihaning texnik-iqtisodiy ko'rsatkichlari. Loyihaning haqiqiy va nisbiy ko'rsatkichlari. Aholi yashaydigan va ishlab chiqarish hududlarining ko'rsatkichlar tizimi. Sarflanadigan xarajatlarni hisoblash.

#### **Chet el tajribalaridan ko'p maqsadli kadastr tizimini takomillashtirishda va ulardan yer hamda ko'chmas mulk bilan bog'liq operatsiyalarni o'tkazishda foydalanish**

G'arbiy Yevropa kadastr tizimini yuritish tartibi. Fransiya davlati kadastr tizimini yuritishdan maqsadi. Fransiyadagi yirik Parij, Lill, Marsel shaharlarida yer kadastrini yuritishning uziga xos xususiyatlari. Shimoliy Yevropa. Shvetsiya, Norvegiya, Finlyandiya davlatlarining yer kadastr tizimi.

#### **Amaliy mashg'ulotlarni tashkil etish bo'yicha ko'rsatmalar**

Amaliy mashg'ulotlarda talabalar shahar va qishloq aholi yashash joylarini loyihalash va qurish usullarini, zarur hamda kerakli ma'lumotlarni hisoblash yo'llarini o'rganadilar.

1. Aholi yashaydigan joylarning loyihasi va uni tuzish uchun kerakli materiallar. Loyiha tuzish uchun uslubiy ko'llanmalar me'yorlar va hujjatlar. Loyiha tuzish uchun chizma asos tayyorlash

2. Qishloq xo'jaligidagi aholi yashaydigan joylarning asosiy qismlari va elementlarini joylashtirish shartlari. Aholi punktidagi funksional hududlarni joylashtirish.

3. Jamoa maydonini, dam olish (istirohat bog'i, sport maydonlari) hududini joylashtirish. Asosiy va kirish ko'chalarini, jamoa binolarini (ular uchun ajratiladigan yer maydoni bilan) joylashtirish.

4. Ishlab chiqarish hududini tashkil qilish. Ishlab chiqarish majmualari va muassasalarini aholi yashaydigan hudud xo'jalikning umumiy yer maydoni va tashqi hudud bilan bog'liqligini hisobga olgan holda joylashtirish.

5. Aholi yashaydigan joylardagi ko'chalar va jamoa maydonlari. Ko'chalarni loyihalash. Ko'chalar loyiha tarkibini va me'moriy kompozitsiyaning asosi. Ko'chalar tizimini qabul qilishda tabiiy sharoitining ta'siri. Aholi yashaydigan hudud loyihasini tuzish. Aholi uylar turini qabul qilish. Aholi uy joylarining turlari ularning ijtimoiy –iqtisodiy ko'rsatkichlari. Uy joylarga quyosh nuri tushishini hisobga olgan holda joylashtirish.

6. Tomorqa elementlari va ularni joylashtirish. Tomorqali va tomorqasiz uylar to'g'risida tushuncha. Tomorqa maydoni, uning o'lchamlari. Aholi uylarining ko'chaga nisbatan joylashishi. Uylarni tomorqa maydoniga joylashtirish usullari. Tomorqa elementlari va tomorqa loyihasi.

7. Sport va dam olish maydonlarini joylashtirish. Bolalar bog'chalari, maktablar o'quv yurtlari, savdo, umumiy ovqatlanish, ma'muriy tibbiyot korxonalarini joylashtirish, loyihalarni tuzish.

8. Oddiy va murakkab kvartallar. Kvartallar to'g'risida tushuncha. Tomorqali va tomorqasiz kvartallarining afzalliklari va kamchiliklari.

9. Ishlab chiqarish majmualarini aholi yashaydigan hudud, qishloq xo'jaligidagi foydalaniladigan yerlar va yo'llar bilan funksional bog'liqligi.

10. Loyihaning texnik-iqtisodiy ko'rsatkichlari. Loyihaning haqiqiy va nisbiy ko'rsatkichlari. Aholi yashaydigan va ishlab chiqarish hududlarining ko'rsatkichlar tizimi. Loyiha yechimlarini taqqoslash ko'rsatkichlari. Loyihani amalga oshirish tartibi va rejasi.

11. Qurilishlarni joylashtirish va aholining yashashi funksional qulay bo'lishi uchun shahar yerlarini baholash.

Amaliy mashg'ulotlarni tashkil etish bo'yicha kafedra professor-o'qituvchilari tomonidan metodik ko'rsatma ishlab chiqiladi. Unda talabalar asosiy ma'ruza mavzulari bo'yicha olgan bilim va ko'nikmalarini amaliy masalalar yechish orqali yanada boyitadilar. Shuningdek darslik, o'quv qo'llanmalar asosida talabalar bilimini mustahkamlashga erishish, tarqatma materiallardan foydalanish, ilmiy maqolalar va tezislarni chop etish orqali talabalar bilimini oshirish, mavzular bo'yicha ko'rgazmali qurollar tayyorlash va boshqalar tavsiya etiladi.

### **Mustaqil ishlarni tashkil etish shakli va mazmuni**

Talaba mustaqil ishni tayyorlashda muayyan fanning xususiyatlarini hisobga olgan holda quyidagi shakllardan foydalanish tavsiya etiladi:

1. Qishloqdagi aholi punktlari Bosh loyihalarini tuzish zaruriyati va uning asosiy vazifalari.
2. Uy-joy, jamoa va ishlab chiqarish binolarining sig'imini, sonlarini aniqlash, namunaviy loyihalarini tanlash va binolar, inshootlar ro'yxatini tuzish.
3. Aholi punktidagi funksional hududlarni joylashtirish.
4. Loyihaning texnik-iqtisodiy ko'rsatkichlarini hisoblash. Loyihaning arxitektura yechimlari.
5. Aholi punktlari yerlari kadastrini yuritish zaruriyati va ahamiyati.
6. Aholi punktlari yerlari kadastrini hisob-kitob qilish va baholash uchun zarur omillar.

### **Dasturning informatsion – uslubiy ta'minoti**

Mazkur fanni o'qitish jarayonida ta'limning zamonaviy metodlari, pedagogik va axborot-kommunikatsiya texnologiyalari qo'llanilishi nazarda tutilgan.

• shahar va qishloq aholi yashash joylarini loyihalash va qurish fanining maqsadi va mazmuni, mamlakat iqtisodiyotidagi o'rni va ahamiyati, fanning predmeti, usullari va vazifasi, unda iqtisodiy matematik usullar, iqtisodiy samaradorligini kompleks baholash ma'ruza darslarida zamonaviy kompyuter texnologiyalari yordamida prezentatsion va elektron-didaktik texnologiyalaridan;

• shahar va qishloq aholi yashash joylarini loyihalash va qurishni iqtisodiy asoslash, qishloq xo'jaligida fanning o'rni va uni o'zlashtirish, ularning sifatini yaxshilashni iqtisodiy baholash, iqtisodiy matematik usullar mavzularida o'tkaziladigan amaliy mashg'ulotlarda aqliy hujum, guruhli fikrlash pedagogik texnologiyalarini qo'llash nazarda tutiladi.

## **Foydalaniladigan asosiy darsliklar va o‘quv qo‘llanmalar ro‘yxati**

### **Asosiy adabiyotlar va o‘quv qo‘llanmalar**

1. Aliqulov G‘.N., Jo‘raqulov O.D., Niyazov V.R. “Yer uchastkasi va bino-inshootlarga bo‘lgan huquqlarni davlat ro‘yxatidan o‘tkazish” O‘quv qo‘llanma. Qarshi, 2016. -187 b
2. Ismoilov T., Babajanov A. Shahar va qishloqlardagi aholi punktlari loyihalarini tuzish va qurish asoslari. Toshkent «Yangi asr avlodi», 2002.
3. Artemenko V.V., Loyko P.F., Ogarkov A.P., Sevostyanov A.V. Kadastr zemel naseleennykh punktov. Uchebnoye posobiye. M.: Kolos, 1997.

### **Qo‘shimcha adabiyotlar va o‘quv qo‘llanmalar**

1. Konchukov N.P. Planirovka s/n mest – M., Visshaya shkola, 1998
2. Kirsanov V.A. Razmesheniye i planirovka proizvodstvennykh sentrov s/x predpriyatiy i obyedneniy Xarkov, 1983
3. Bobojonov, K.R. Raxmanov Yer kadastr .O‘quv qo‘llanma, T.,TIMI 2008,
4. Internetdan olingan ma’lumotlar. [www.colibri.ru](http://www.colibri.ru), bolshe.ru, www.kadastr.ru